RASMIY - IDORAVIY USLUBNING O'ZIGA XOS LISONIY VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Xasanboyeva Marjona Akbarali qizi
Andijon Davlat Chet Tillari Instituti
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
FTÓ Ingliz tili yo'nalishi talabasi
Email: xasanboyevamarjona520@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24144335

Annotatsiya: Mazkur maqola adabiy tilning funktsional uslublaridan biri bólgan rasmiy - idoraviy uslubning lingvistik tabiati, uning lisoniy va grammatik xususiyatlarini ilmiy - nazariy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolada rasmiy hujjatlar tiliga xos bo'lgan ixchamlik, qat'iy standartlashuv, emotsional - ekspressiv vositalarning mutlaqo mavjud emasligi hamda atamalarning bir xilligi kabi lisoniy me'yorlar tahlil qilingan. Shuningdek, hujjat matnlarida fe'l shakllarining qóllanilish xususiyatlari, otlashgan sózlar, kesimning órni va sintaktik konstruksiyalarning tuzilish qoliplari grammatik jihatdan yoritib berilgan. Tadqiqot davomida rasmiy uslubning boshqa uslublardan farq qiluvchi óziga xos qonun - qoidalari va ularning yozma nutqdagi amaliy namoyon bo'lishi ochib berilgan.
Kalit so'zlar: rasmiy-idoraviy uslub, lisoniy xususiyatlar, grammatik me'yor, standartlashuv, hujjat tili, sintaktik konstruksiya, atamashunoslik.

Abstract: This article is dedicated to the scientific and theoretical research of the linguistic nature, as well as the linguistic and grammatical features of the official - business style, which is one of the functional styles of the literary language. The article analyzes linguistic norms inherent in the language of official documents, such as conciseness, strict standardization, the complete absence of emotional - expressive means and terminology unification. Furthermore, the grammatical features of the use of verb forms, substantivized words, the position of the predicate, and the structural patterns of syntactic constructions in document texts are highlighted. The study reveals the specific rules of the official style that distinguish it from other styles and their practical manifestation in written speech.
Key words: official - business style, linguistic features, grammatical norm, standardization, language of documents, syntactic construction, terminology.

Аннотация: Данная статья посвящена научно-теоретическому исследованию лингвистической природы, а также языковых и грамматических особенностей официально-делевого стиля как одной из функциональных разновидностей литературного языка. В статье анализируются такие лингвистические нормы языка официальных документов, как лаконичность, строгая стандартизация , польное отсутствие эмоционально-экспрессивных средств и унификация терминологии. Кроме того, грамматически освещены особенности употребления глагольных форм, субстантивация сказуемого и шаблоны построения синтаксических конструкций в текстах документов. В ходе исследования раскрыты специфические закономерности официально-делового стиля, отличающие его от других стилей, и их прак тическое проявление в письменной речи.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ключевые слова: официально-делавой стиль, лингвистические особенности, грамматическая норма, стандартизация, язык документов, синтаксическая конструкция, терминология.

Kirish

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlash, uning barcha jabhalarda, xususan, davlat boshqaruvi, qonunchilik va idoraviy ish yuritish tizimida tólaqonli qo‘llanilishi ta'minlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Jamiyat hayotining turli sohalarida yuzaga keladigan rasmiy munosabatlarni tartibga solishda rasmiy-idoraviy uslub asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining funksional uslublari tizimida bu uslub o‘zining qat’iy tartibga solinganligi, standartlashgan qoliplari va óziga xos lisoniy grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi zamonaviy idoraviy ish yuritish jarayonlarida hujjatlar tilini standartlashtirish, rasmiy matnlarni tuzishda yól qo‘yiladigan imlo, uslubiy hamda grammatik xatoliklarning oldini olish, shuningdek, rasmiy-idoraviy uslubning leksik-grammatik tabiatini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish zaruriyati bilan belgilanadi.

Asosiy qism.

Jamiyatni tilsiz va tilni insoniyat jamiyatdan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Til va tafakkurning paydo bo‘lishi hamda ularning taraqqiyoti insoniyat jamiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Rasmiy uslub-ish qog‘ozlari, hujjatlar, qonun, qaror, ustav, nizom, shartnoma kabilarning mazmun-mohiyatida ham boshqa uslublardan farqlanadigan bir qancha jihatlar mavjuddir. Bunday hujjatlar sirasiga farmonlar, vaqfnomalar, arznomalar, vasiqalarni kiritishimiz mumkin. Bu uslub davlatning ichki tartib qoidalari, shu mamlakat fuqarolarining huquqiy munosabatlari, shuningdek, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun xizmat qilganligi bilan ham og‘zaki so‘zlashuv, ilmiy yoki badiiy uslublardan farq O‘zbek tiling rasmiy uslubi tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Hozirgi O‘zbekiston Respublikasi va unga tutash hududlarda vujudga kelgan qadimgi davlatlar, hoqonliklar, xonliklar, amirliklar, hokimliklar, bekliklarda yuritilgan kóplab hujjatlar fikrimizning yaqqol dalilidir. Rasmiy uslubning paydo bo‘lishi jamiyatning siyosiy va iqtisodiy hayotining turli xil jarayonlarini hujjatlashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning ham lingvistik, ham nolingvistik xususiyatlarini belgilaydi.

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur qilish zarur. Har bir rahbar boshqaruv muassasalarining hodimlari, umuman faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq har bir kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lónda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib Respublikamizda o‘zbek adabiy tilining rasmiy-ish uslubini o‘rganish bo‘yicha ilk qadamlar qóyilgan, xususan, bir nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Lekin hali juda ko‘p ishlar qilinmoği lozim. Hujjatlar matnining holislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy tóliqlikdan óziga mos uslubi, undagi óziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta'min etiladi. Hujjatlardagi gap qurilishi, odatda, tasniflash, mayda qismlarga ajratishga, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga, ummuman, sabab-oqibat va shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan uzun jumlalar, murakkablashgan, uyushiq bólakli gaplar ko‘p qo‘llaniladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek milliy tilning oliy formasi ishlov berilgan, me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan barqaror shaklidir. U milliy tilga zid qóyilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi, tartibga solingan bosh kórinishi, xolos. Hozirgi o‘zbek tilida davlat ishlari olib boriladi. Ózbekistonning davlat tili deyilganda ham ko‘proq darajada o‘zbek adabiy tili nazarda tutilgan, binobarin, adabiy til davlat tomonidan himoyalangandir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki va yozma shakllari mavjud, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi. Adabiy tilning og‘zaki shakli to‘g‘ri talaffuz me'yorlariga , eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki shakli ko‘proq adabiy so‘zlashuv uslubida namoyon bo‘ladi, uning faoliyatida imo-ishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining yozmq shakli, avvalo, yozuv sistemasiga hamda shu sistema birliklarini ko‘rish va óqishga asoslanadi. Yozuv sistemasi, ma’lumki, grafika, orfografiya va punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topadi, uning moddiy material asosini optik-grafik vositalar tashkil qiladi.

Rasmiy stilning grammatik xususiyatlari - bu stilning ariza, tushuntirish xati, tilxat, taklifnoma kabi kórinishlari jumlalarning qisqaligi va fikrlarning aniqligi bilan ajralib turadi. Hujjatlardagi nutqiy shtamplar matnga rasmiylik belgisini kiritadi. Hujjatlarda ot turkumiga oid so‘zlar kóp qóllaniladi. Hatto fe'l ishlatilganda, uning otga yaqin shakli-harakat nomidan foydalaniladi. Fe'llar majhul nisbatda va buyruq-istak mayli shaklida qo‘llaniladi. Yuridik qonun va hujjatlarda jumlalar juda uzun, ba’zan bir fikr yarim betlik gap orqali ifodalanadi.

Hujjatlardan shartnomalar ham murakkab sintaktik qurilishga ega. Uning kirish qismi, alohida bandlarini kórsatuvchi matnlar xatboshilarga ajratilgan bóladi. Bunday xususiyat matnni o‘qishni va tushunishni birmuncha yengillashtiradi. Rasmiy stilning leksik xususiyatlari asli rasmiy stilda bóyoqdor sózlar bo‘lishi taqozo qilinadi. Rasmiy tilda jargonlar, shevaga oid so‘zlar, eskirgan so‘z va birikmalar odatda ishlatilmaydi. Órni bilan arxaizm va istorizmlardan foydalaniladi. Yuridik hujjatlardan Konstitutsiyada ham har bir sóz va jumla fikr-mulohazaning aniq, to‘g‘ri ifodalanishiga xizmat qilishi lozim. Unda kasb-korga, yuridik, diplomatik, ma’muriy va boshqa hujjatlarga oid terminlar mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolada o'zbek adabiy tilining muhim funksional uslublaridan biri bo'lgan rasmiy-idoraviy uslubning lingvistik tabiati hamda lisoniy va grammatik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etildi. Tadqiqot davomida rasmiy uslub qadimgi davrlardan boshlab jamiyatning siyosiy-iqtisodiy jarayonlarini hujjatlashtirish ehtiyoji bilan shaklangani, davlatning ichki tartib-qoidalari va huquqiy munosabatlarini tartibga solishda asosiy vosita ekanligi ochib berildi. Shuningdek, hujjatlar tiliga xos ixchamlik, qat'iy standartlashuv, atamalarning muayyan bir xilligi, emotsional-ekspressiv vositalarning mavjud emasligi kabi me'yorlar, shuningdek, fe'l shakllari, otlashgan so'zlar, kesimning o'rni va sintaktik konstruksiyalarning tuzilish qoliplari tahlil qilindi. Zamonaviy idoraviy ish yuritish jarayonlarida hujjatlar tilini standartlashtirish, imlo, uslubiy hamda grammatik xatolarning oldini olish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri ekanligi asoslab berildi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Davlat tilida ish yuritish" D. Yuldasheva, Samarqand 2021
2. "Ish yuritish" M. Aminov, A. Madaliyev, N. Mahkamov, N. Mahmudov
3. "Hozirgi o'zbek tili" H. Jamolxonov
4. "O'zbek tili stilistikasi" S. Sultonsaidova , Ó. Sharipova
5. E'zoza Atabayevna Utepbergenova Chirchiq davlat pedagogika universiteti biologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi 155-sahida 3- qism 1-son.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.